NEONATAL TORAKOTOMIYADAN KEYINGI OG‘RIQNI BAHOLASHDA COVERS SHKALASINING KLINIK SAMARADORLIGI

Ismailov Rustambek Abdumutalovich
Andijon davlat tibbiyot instituti
Yusupov Anvar Sabirdjanovich
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Muammoning dolzarbligi. Chaqaloqlar; neonatal jarroxlik, chaqaloqlar reanimasiya-anesteziologiya va intensiv terapiya bo‘limlarida (ChRAIT) ko‘pincha ko‘plab og‘riqli muolajalarga duchor bo‘ladilar, shuningdek, operatsiyalardan keyin va o‘pkaning suniy ventilyatsiyasi tufayli uzoq muddatli og‘riq va noqulaylikni boshdan kechiradilar. Og‘riqni to‘g‘ri baholash muhim va shu bilan birga murakkab jarayon bo‘lib, chaqaloqlar reanimatsiya-anesteziologiya va intensiv terapiya bo‘limlarida chaqaloqlarni xavfsiz parvarish qilishni ta’minlash uchun zarur. Baholashning asosiy maqsadi og‘riqni boshqarish va engillashtirishdir, ammo neonatal jarroxlik, chaqaloqlar reanimatsiya va intensiv terapiya bo‘limlarida chaqaloqlar uchun og‘riqsizlantirish va sedatsiyaning optimal usullari hali aniqlanmagan. Og‘riqni baholash sohasidagi yutuqlarga qaramay, chaqaloqlarda sedatsiya kam o‘rganilgan va aynan chaqaloqlar uchun sedatsiyani baholash vositasini ishlab chiqish va tasdiqlash zarurati mavjud. Hozirgi vaqtda bir nechta baholash usullari mavjud, jumladan COVERS shkalasi (Crying, Oxygen, Vital signs, **Expression**, **Resting, Signaling** distress**.** (Chaqaloqlarda yig‘i, SpO_2, xayotiy kursatkichlar, yuz ifodasi, uxlash xolati, bezovtalik xolati)).

Maqsad. Torakotomiyadan keyingi davrda suniy o‘pka ventilyatsiyasida bo‘lgan chaqaloqlarni og‘riqni baxolashda COVERS shkalasining ishonchliligi va validligini baholash.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqot Andijon viloyat bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazining anesteziologiya-reanimatologiya intensiv terapiyasi bo‘limida operatsiyadan keyingi davrda o‘pkaning sun’iy ventilyatsiyasida bo‘lgan gestatsion yoshi 23 haftadan 40 haftagacha bo‘lgan 44 nafar chaqaloqda o‘tkazildi**. Chaqaloqlar og‘rig‘ini obiektiv baholash** doirasida og‘riqni bartaraf qilish yoki tinchlantirishga qaratilgan farmakologik aralashuvlardan oldin va keyin bir vaqtning o‘zida COVERS shkalasi yordamida baholash o‘tkazildi. Muvofiqlashtirilgan va konstruktiv validlik, ekspertlararo ishonchlilik va ichki muvofiqlik kabi ko‘rsatkichlar baholandi.

Birlamchi tahlil COVERS vositasi yordamida olingan umumiy ballning ishonchliligi va validligini baholashga qaratilgan. Ishonchlilikni baholash uchun ikkita o‘lchovdan foydalanildi: ekspertlararo ishonchlilik uchun sinf ichidagi korrelyatsiya koeffitsienti va ichki muvofiqlik uchun Kronbax koeffitsienti. Instrumental validlikni baholash uchun ikkita o‘lchovdan foydalanildi: konvergent validlik o‘lchovi sifatida Spirmenning rang korrelyatsiyasi va konstruktiv validlik o‘lchovi sifatida farmakologik aralashuvdan oldin va keyin COVERS shkalasining ballarining taqsimlanishini taqqoslash uchun Uilkokson mezoni.

Natijalar 0,85 dan 0,95 gacha bo‘lgan sinf ichidagi koeffitsientlar bilan yuqori ekspertlararo ishonchlilikni ko‘rsatdi ($P<0,001$ dan 0,0001). Konvergent validlik sezilarli korrelyatsiya bilan tasdiqlandi (Spirmenning rang korrelyatsiyasi koeffitsienti og‘riqning yuqori ballarida 0,83 va og‘riqning past ballarida 0,61 ni tashkil etdi). Kronbax koeffitsienti yordamida o‘lchangan ichki muvofiqlik ham yuqori edi: og‘riqni baholash uchun 0,82 va sedatsiyani baholash uchun 0,87. Konstruktiv validlik farmakologik aralashuvdan oldin va keyin COVERS shkalasi bo‘yicha og‘riqni baholashning sezilarli darajada pasayishini ko‘rsatgan Uilkokson belgi darajalari mezoni bilan tasdiqlandi: o‘rtacha qiymatlar 4,86 (3,38) dan 1,81 (1,53) gacha kamaydi ($P<0,0001$). Sedatsiya baholaridagi o‘zgarishlar ham sezilarli bo‘lib, o‘rtacha qiymatlar 0,85 (1,66) dan 2,78 (2,81) gacha o‘zgardi ($P<0,0001$).

Shunday qilib, COVERS shkalasi sun’iy o‘pka ventilyatsiyasida va/yoki chaqaloqlar intensiv terapiyasi bo‘limida operatsiyadan keyingi davrda bo‘lgan chaqaloqlarda davom etayotgan og‘riq, qo‘zg‘alish va sedatsiyani baholash uchun klinik jihatdan qo‘llaniladigan, ishonchli vositadir. Biroq, uning samaradorligini yanada tasdiqlash uchun muolaja og‘rig‘i sharoitida vositaning yaroqliligi va ishonchliligini qo‘shimcha tekshirish talab etiladi. Farmakologik sedatsiya ta’sirida bo‘lgan yoki nevrologik buzilishlari bo‘lgan chaqaloqlarda og‘riqni baholash ayniqsa murakkab vazifa bo‘lib qolmoqda.